

3. Schmidt, H. (2017). Dual Education System: Principles and Implementation. Springer.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kasb-hunar ta’limini rivojlantirish to‘g‘risida”gi farmoni. (2021).
5. Vasileva, T. (2020). The Role of Practical Training in Vocational Education. Journal of Modern Education Research.

ONA TILI FANINING KELAJAGI

O'lmasova Durdona O'ktam qizi

Axborot Texnologiyalari va Menejment Universiteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada biz o‘z faxrimiz va ramzimiz bo‘lgan ona tilimiz haqida bo‘layotgan yangiliklar va tadqiqotlar va ona tili haqida bolayotgan tajribalar haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *ona tili yaratilish tarixi, zamonaviy ta’lim tizimlari, ona tili fani ustidagi tadqiqotlar va yangiliklar.*

Kirish

Azaldan bilamizki bizning o‘z ona tilimizning tarixi uzoq tarixga taqaladi. Ya'ni, fors va arabiy so‘zlarga uyg‘unlashganligi hech kimga sir emas va ona tili — har bir elatning, xalqning, millatning o‘z tili. Ona tili lug‘at tarkibi, asosan, shu tilga mansub xalqning turmushi, madaniyati va an‘analarini ifodalaydigan so‘z va tushunchalardan iborat bo‘ladi. Ona tili taraqqiyoti har bir elat, xalq va millatning ijtimoiy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq.

Zamonaviy ta’lim tizimi:

Ma’lumki, dunyoda yetti mingga yaqin til bor, ammo shularning ikki yuztasigina davlat tili maqomiga ega. Ularning orasida o‘zbek tilining borligi esa ona tilimizning jahon hamjamiyatida o‘zining munosib o‘rniga ega ekanligini anglatadi.

O‘zbek tilining yurtimizda davlat tili maqomini olganiga shu kunlarda 35 yil to‘ladi. Albatta, o‘tgan yillar davomida ona tilimizning nufuzi mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz mavqeyining oshib borishiga mos ravishda o‘sib, rivojlanib bormoqda. Bunda esa tabiiyki, maktabgacha va maktab ta’limi tizimida

yosh avlodning ona tiliga mehr-muhabbatini tarbiyalash, davlat tilini o‘qitish samaradorligini oshirish borasidagi izlanishlar muhim ahamiyatga ega.

Albatta, ona tilini sevmagan, uning qadrini anglamagan inson yuragida el-u yurtga, Vataniga muhabbat ham bo‘lmaydi. Biz tilimizni qanchalik asrasak, yuksaltirsak, rivojlanishiga hissa qo‘shsak, o‘zga millatlar ham bizning tilimizni, xalqimizni hurmat qiladi

Tadqiqotlar va yangiliklar:

Bashariyat nazdida “Navoiy tili” deb e’tirof etiladigan ona tilimizning jahon ayvonida takror-takror yangrayotgani barcha vatandoshlarimiz qalbida faxr tuyg‘usini uyg‘otayotgani aniq.

– Uzluksiz ta’lim tizimidagi islohotlar asnosida tabiiyki, maktabgacha va maktab ta’limida ona tili va adabiyot fanlarini o‘qitish jarayoni, o‘qituvchi-pedagoglarni rag‘batlantirish tizimi va bilimlarni baholash mezonlarini ham takomillashtirish talab etilmoqda. Bu boradagi yangiliklarga ham to‘xtalib o‘tsangiz.

– Albatta, ta’lim tizimidagi yangilanishlar va davr talabi asosida xorijiy tillar qatorida ona tili va adabiyot, davlat tilini o‘qitish jaryoniga ham xalqaro baholash va ta’lim texnologiyalarini tatbiq etish ehtiyoji yuzaga chiqdi. E’tiborlisi, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘zi vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Prezident qaroriga ko‘ra, joriy yildan Milliy baholash tizimida boshqa fan o‘qituvchilari singari ona tili va adabiyot, davlat tili fani muallimlari ham ona tilini bilish bo‘yicha tegishli darajadagi sertifikatga ega bo‘lganda 50 foiz miqdorida qo‘shimcha ustama olish imkoniga ega bo‘lmoqda.

Mazkur yangiliklar, albatta, barchada ona tilini mukammal o‘rganishga rag‘bat uyg‘otgani holda, davlat tilini hurmat qilish, uning rivojlanishiga hissa qo‘shishga da’vat etishiga ishonaman.

Ma’rifatparvar, o‘nga yaqin dunyo tillarini puxta o‘rgangan olim Is’hoqxon Ibrat “Bizning yoshlar, albatta, boshqa tilni bilish uchun sa’y-harakat qilsinlar, lekin avval o‘z ona tilini ko‘zlariga to‘tiyo qilib, ehtirom ko‘rsatsinlar. Zero, o‘z tiliga sadoqat – bu Vataniy ishdir”, deya yozib qoldirgani bejiz emas. Zero, dunyo tillarini chuqur o‘rgangan holda o‘z ona tilini e’zozlagan farzand o‘zligini yo‘qotmaydi, xalqini azizu mukarram bilib, mamlakat taraqqiyotida o‘zini daxldor his qiladi!

Bugun dunyo shiddat bilan rivojlanmoqda, ilm-fan, texnika doimiy takomillashib bormoqda. Taraqqiyotdan ortda qolish mamlakat istiqboli, xalqning erkinligiga ham raxna solishi tabiiy.

Shu bois ona tilimizdan nafaqat aloqa vositasi, balki millatning o‘zligini namoyon qiluvchi qudratli manbai sifatida foydalanish zarur. Shu sababli ham til masalasi doim davlatning e’tiborida, himoyasi va qullab-quvvatlovida bo‘lmog‘i shart.

O‘z ona tilini hurmat qilgan kishi uchun, avvalo, faqat so‘zda emas, amalda o‘zini ko‘rsatadigan fursat allaqachon kelgan. Aminmanki, ona tilini hurmat qilgan inson hech qachon tilni buzib gapirmaydi. Ko‘pchilik chet ellarda o‘zbek tilini o‘rganayotgan bir paytda tilning haqiqiy egalari uni buzib gapirishsa, afsuski achinarli holat.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda biz o‘z ona tilimizni mustaqil tarzda bilishimiz va o‘z tilimizni chuqur anglashimiz zarur chunki o‘z tilini bilmaslik bu huddi jinoyat kabidir. Chunki biz shu vatanda tug‘ulib o‘rib shu tinch yurtga yashashimiz esa asl baxt demakdir. Va biz bu yurtga shukronalik bildirish maqsadida o‘z ona tilimizni mohiyatini tushunib yetishimiz zarur deb o‘yleman.

FOYDALANILGAN MANBALAR

1. <https://www.iiu.uz/uz/news/2532>
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ona_tili
3. <https://yuz.uz/uz/news/ona-tili--millat-ruhi>
4. <https://yuz.uz/uz/news/ona-tili--millat-ruhi>
5. <https://lex.uz/docs/-5013007>